



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Jalilova Nafisa Razzoqovna¹, Sa'dullayeva Sitora Jamoliddin qizi²

SamDU dotsenti¹, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti talabasi²

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MAQOLLARNI IKKI TOMONLAMA YONDASHUV ASOSIDA O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga maqollarni o'qitishning ta'limiyy va tarbiyaviy ahamiyati, maqollarni ikki tomonlama yondashuv asosida o'rgatish metodlari hamda maqollar ustida ishslash darslarini tashkil etish yo'llari yoritib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar:

Hajm jihatdan qisqa va ixcham, she'riy va nasriy ko'rinish, maqollarni o'qitishning ta'limiyy va tarbiyaviy ahamiyati, maqollarni o'qitish metodlari, maqollar ustida ishslash darslarini tashkil etish yo'llari.

Boshlang'ich ta'lism tizimining bosh maqsadi yosh avlodga sifatli ta'lism-tarbiya berish, ularni jahon andozalariga mos ravishda o'qitish, zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan, mustaqil izlanuvchan, ijodkor yoshlarni kamol toptirishga qaratilgan.

Xususan, boshlang'ich sinf ona tili, o'qish fanlarini o'qitishda kichik yoshdag'i o'quvchilarning ijodkorligi, mustaqil izlanuvchanligini oshirish, nutqini o'stirish, tafakkur doirasini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Mazkur vazifani amalga



oshirishda o'quvchilarga maqollarni o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda maqollarni o'qitish darslari asosan, "o'qish" fani darslarida matn (badiiy, ilmiy-ommabop asar)lar ustida ishslash jaroyonida amalga oshiriladi, chunki maqollar 1-4-sinf "O'qish kitobi"da mazkur matnlar g'oyasiga mos ravishda berilgan bo'lib, ularga e'tibor bermaslikning imkonini yo'q.

Maktablarda maqollarni orgatish, ular ustida ishslash talab darajasida emas. Maqollar odatda o'qish darslarida o'qituvchi tomonidan o'qib, izohlab beriladi, asar g'oyasiga aloqadorligi qisman tushuntiriladi, aksariyat hollarda o'quvchilar tomonidan o'qish, yod olish, yashiringan qismini aniqlash kabi mashg'ulotlarni o'tkazish bilangina cheklanadi. Vaholanki, maqollar nafaqat "O'qish kitobi" darsliklarida balki, "Ona tili" darsliklarida ham talaygina berilgan bo'lib, ularni ikki tomonlama yondashuv asosida o'rganish talab etiladi:

- 1) Xalq og'zaki ijodining kichik badiiy janri sifatida;
- 2) Lingvistik nuqtai nazaridan paremiologik birlik sifatida.

Xalq og'zaki ijodining kichik badiiy janri sifatida o'ziga xos xususiyatlari, boshqa janr (topishmoq, tez aytish, naql, hikmatli so'z)lardan farqlanishi, g'oyaviy tematikasi, mazmunan matnlarga aloqadorligi o'qish fani darslarida o'rganilsa, lingvistik jihatdan tilimizda necha asrlardan beri keng qo'llanib kelayotgan paremiologik (barqaror) birlik sifatida o'ziga xos jihatlari, boshqa paremiologik birlik (ibora, frazeologizm, aforizm, hikmatli so'z)larga o'xshash va farqli tomonlari, nutqda qo'llanish o'rni va ahamiyati) ona tili darslarida o'rgatib boriladi.

Maqollarni bunday ikki tomonlama o'qitish darslarini tashkil etmasdan kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirib bo'lmaydi.

Maqollarni o'qitishning tarbiyaviy tomoni deganda o'quvchilarni didaktik ruhda tarbiyalash, ongi va tafakkurini o'stirish, nutqini to'g'ri va ravon qilish, umuman olganda kichik yoshdagi bolalarda shaxsni shakllantirish vazifasi ko'zda tutiladi. Bu vazifani amalga oshirish har bir o'qituvchidan katta tayyorgarlik va ilg'or pedagogik tajribani talab etadi.



Maqollar folklor adabiyotining ommaviy janrlaridan biri sifatida har bir xalqning o'tmishi, milliy qadriyatları, dunyoqarashi, psixologiyasini aks ettiradi. Shaklan qisqa, ixcham va sodda tilda bo'lsa-da, g'oyaviy tematikasi butun bir kitobning mazmuniga teng bo'ladi.

G'.Salomovning ta'kidlashicha, "Maqol – xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqealarda munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlari bilan muomala bo'lish jarayonida tug'iladi. Xalq maqoli – xalqning mulkidir. Maqol qayg'usi – xalq qayg'usi, maqol g'azabi – xalq g'azabi, maqol kulgusi – xalq kulgusi va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir. Maqol ishlatmagan bironta xalq, maqol ijod qilmagan bironta til yo'q" [5, 162]. "Dunyoda tilsiz xalq bo'limganidek, maqolsiz til ham yo'q," - deb ko'rsatadi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat [6, 258].

Sh.G'aniyeva o'z maqolalaridan birida "Maqollarning ayrimlari ko'chma ma'noga egaligi bilan frazema (ibora)larga yaqinlashadi. Maqollardan frazemalarga o'tish frazeologizatsiya jarayonidagi oraliq nuqtani aks ettiradi. Xuddi shunday oraliq holat aforizm (hikmatli so'z)lar bilan maqollar o'rtasida kuzatiladi. Ayrim aforizmlarning o'ta ommaviyashib ketishi "muallifga egalik" belgisini xiralashtiradi va ularning maqollashuviga olib keladi" – deb maqollarni aforizm va iboralardan farqlanishini izohlab beradi hamda maqollar paremiologik birliklar tarkibidan "barqarorlik", "tayyorlik", "semantik transpozitivlik", "informativ tugallik" belgilari bilan ajralib turishini jadval asosida farqlab beradi [7, 94].

Mumtoz adabiyotimiz, qolaversa hozirgi zamon o'zbek adabiyotining noyob asarlarida maqollarga alohida ahimiyat berilganki, ularning janr sifatda ma'lum bir g'oyani ifoda etishi hamda barqaror birlik sifatida nutqda tutgan o'rni va qiymati yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, turkiy adabiyotda xalq maqollarini birinchi bolib M.Koshg'ariy to'plagan va o'zining "Devon"ida qadimiy turkiy qabila va elatlar orasida keng qo'llanilgan maqollarni keltirganki, ularning ko'p qismi bugungi davrga qadar o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Masalan:

- *Kishi olasi ichtin, yilqi olasi toshtin (Odam olasi ichida, mol olasi tashida);*
- *Uma kelsa, qut kelur (Mehmon kelsa, baraka keladi);*



- Er so'zi bir (Yigit so'zi bir bo'lar) va b.q[3,256].

Tadqiqotchilarning fikricha, maqollar O'rxun-Enasoy yozma obidalarda ham uchraydi, demak ularning paydo bo'lishi va qo'llanilishi eng qadimgi davrlarga borib taqaladi.

A.Navoiy o'zining "Xamsa", "Lison-ut tayr", "Mahbub-ul qulub" kabi bir qator asarlarida maqollarni qo'llash bilan birga ularni qayta ishlab g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak darajaga ko'targan. M.Sh.Gulxaniy esa "Zarbulmasal" asarida xalq hayoti bilan bog'liq 400 dan ortiq maqol va hikmatli so'zlardan foydalanib o'z asarini badiiy jihatdan yuqori pog'onaga olib chiqqan.

Maqollar pand-nasihat ya'ni didaktik xarakterda bo'lib, ikki qismidan tashkil topadi:

- 1) Voqeа-hodisaning obrazli ifodasi;
- 2) Hukm tarzida hikmatli yakun beriladi.

Masalan: *Kimki birovga choh qazisa* - birinchi qism,

Shu chohga o'zi tushadi - ikkinchi qism.

Maqollarni o'qitishning tarbiyaviy tomoni yana shunda ko'rindiki, she'riy va nasriy shaklda sodda tilda yozilgan bo'lib, o'z yoki ko'chma ma'no ifodalashiga qaramay, mazmuni o'quvchiga tez yetib boradi va ko'zlagan maqsadingizni bexato ochib beradi, chunki unda badiiylik bor, badiiy so'z qudrati aynan maqollarda o'z ifodasini topgan. Kishilarga, ayniqsa bolalarga tarbiyaviy jihatdan ta'sir etishning eng yaxshi usuli badiiy so'z qudratidan foydalinishdir. Bolalikda ertak, rivoyat, kichik she'rlar, topishmoq, naqlar ko'p o'rgatiladi, aynan ularning ta'sir doirasi oddiy so'z-gaplardan ko'ra kuchli bo'lgani va obrazli tasvir, o'xshatish, chiroylar qochirimlar ostida yashiringan asl haqiqatlar inson ongiga tez va oson anglashilishidadir.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida ma'rifatparvar adiblarimizning maqsadi o'z vatanini hur va ozod yurtga aylantirish edi, bunga esa avvalo xalqning savodxonligini oshirish, o'z haq-huquqini anglasagina erishish mumkinligini tushungan holda, ishni yangi maktablar ochish, yangi usulda o'qitishni yo'lga qo'yish va yangi darsliklar yaratishdan boshlaydi.



Yaratgan darsliklariida asosan pandnoma ruhida yaratilgan durdona asarlardan, xususan, S.Shevroziyning “Guliston” va “Bo’ston” asarlaridan keng foydalanadi. Asardagi bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan bog’liq hikoyatlar, maqol va matallar, hikmatli so’z va rivoyatlar tanlanadi. O’zlari ham maxsus kichik-kichik badiiy asarlar yaratib mazkur darsliklarni shakllantirib boradi. I.Ibrat, A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Qodiriy ta’limotlari kichik yoshdagi bolalarga ta’limni aynan tarbiya bilan chambarchas bog’liq holda olib borish va bunda badiiy asarlardan o’rinli foydalanish zarurligini targ’ib qilishi bejizga emas edi.

Demak, kichik yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasida badiiy asarlarning, xususan, maqollarning o’rnini va ahamiyati juda kattadir.

Maqollarni o’rgatishning ta’limiy tomoni deganda o’quvchilarga maqollarning janr va birlik sifatida o’ziga xos jihatlari, ya’ni janr sifatida yaratilish davri, badiiy asarlarda qo’llanish sabab va maqsadlari, tilimizda lingvistik birlik sifatida iste’mol doirasi va qiymati, boshqa birliklardan farqlanishi, nutqda to’g’ri va o’rinli qo’llash ko’nikmalarini shakllantirish vazifasi ko’zda tutiladi. To’g’ri, boshlang’ich sinflarda badiiy asarlarning janriy xususiyatlarini nazariy jihatdan o’rgatish yoki til birligi sifatida tilshunoslik nuqtai nazaridan o’rgatish biroz og’irlik qilishi mumkin. Biroq buni didaktik tahlil, ko’rgazmalilik, muammoli vaziyat, nazariyaning amaliyot bilan, o’qish fanining ona tili fani bilan o’zaro bog’liqligi, ta’lim-tarbiyaning birligi tamoyillariga tayangan holda amalga oshirish mumkin.

Maktablarda ba’zan maqollarni ibora yoki hikmatli so’zlardan ajratmasdan umumiy birlik sifatida talqin etilishi guvohi bo’ldik, vaholanki, hikmatli so’zlar mazmun-mohiyati, qo’llanish maqsadi va yaratilish shakliga ko’ra maqollarga juda yaqin tursa-da, aniq muallif tomonidan yaratilishi va boshqa o’ziga xos jihatlari bilan farqlanadi:

- *Kishi hunardan qo’l tortsa, u aqslizlikdir (Kaykovus)*
- *Hunar bo’lsa qo’lingda, non topilar yo’lingda (Maqol)*
- *Bilim – qaytarish va takrorlash mevasidir (A.R.Beruniy)*

Shu bilan birga maqollarni noto’g’ri talqin etadi, variantlarini bir-biriga almashtirib yuboradi yoki maqollar ustida tahlil o’tkazmasdan shunchaki yod oldirish



bilan kifoyalanadi. Bu esa o'quvchilarga yuqori sinfda o'qiyotganlarida ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Boshlang'ich sinflarda maqollarni bosqichma-bosqich ma'lum bir izchillikda o'rgatib borish lozim:

1. Tayyorlov bosqichi. Savod o'rgatish davri maqollarni o'qish va o'rganishning tayyorlov bosqichi bo'ladi. Savod o'rgatish davridayoq o'quvchilar maqollarni o'qiydilar. "Alifbe" darsligida maqollar berilgan matnlar mavzusiga xos bo'lib, matn g'oyasini sodda va ixcham holda yetkazish vositasi vazifasini bajaradi. Bunda o'qituvchi maqollarni o'qib, ma'nosini izohlab beradi va bolalarga maqollar haqidagi ilk tushunchalarni shakllantiradi.

2. Birinchi bosqich. 1-2-sinflarda maqollarni o'rgatishning birinchi bosqichi sifatida o'quvchilarga maqollar ustida ishslash bo'yicha ilk mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunda o'quvchilarga darslikda berilgan maqollarni ifodali o'qish, yod olish, mazmunini o'qituvchi yordamida tahlil etish va matni ustida lug'at ishi o'tkazishga ahamiyat beriladi. Matn ostida berilgan maqollarni o'qish va o'rganish, tahlil qilish asar o'qilib, tahlil qilinib bo'lingach amalga oshirilishi kerak. Chunki asar mazmuni va unda yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oyani tushunmay turib, maqolning ma'nosini izohlash qiyin bo'ladi. Mualliflar ham ma'nosini asar voqealari bilan izohlashni nazarda tutadi.

1-2-sinfda maqolning mazmunini o'rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshi ma'no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlarning semantic ma'nolari yuzasidan ish olib borish talab etiladi. Shu tarzda o'quvchilarda maqollarning matn mavzusiga aloqadorligi, kichik badiiy janr va nutq birligi sifatida gapdan, boshqa birlik va janrlardan farqlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

3. Yakuniy bosqich. Bu bosqich boshlang'ich sinflar uchun maqollarni o'rganishning eng muhim cho'qqisi bo'lib, maqollarni o'rgatishdan ko'zlangan ta'limiy va tarbiyaviy maqsad aynan shu bosqichda o'z ifodasini topadi.



3-4-sinflarda maxsus darslarni tashkil etish, badiiy asarni tahlil etish jarayonida o'rgatib boriladi. O'quvchilar o'qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so'zlarni o'zi mustaqil topa olish ko'nikmasini ega bo'ladi, ular yordamida o'qilgan asarlar yuzasidan to'g'ri hukm chiqarishga o'rganadi. Shuningdek, "O'qish kitobida" keltirilgan maqollar orqali o'quvchilarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, donolik, xushfe'llik kabi insoniy tuyg'ular shakllantiriladi.

3-4-sinflarda „Xalq og'zaki ijodi" bo'limi tarkibida „Maqollar" mavzusini alohida o'rganish ko'zda tutilgan bo'lib, bunda maqolning kelib chiqishi, yaratilishi haqida dastlabki elementar ma'lumotlar beriladi, ya'ni maqollar xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasi asosida vujudga kelgani, har bir xalqning milliy ma'naviyatining shakllanishida muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi haqida dastlabki tushunchalar berib boriladi. O'quvchilarga maqollarni mavzu bo'yicha guruhlash, maqollarni izohlash, yoki o'quvchilarga maqol g'oyasiga mos matn tuzish kabi topshiriqlar asosida mustahkamlab borish ham mumkin.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lib boradi:

Ta'limiylar tomonidan:

- maqollarni to'g'ri, ongli o'qiydi va yozadi;
- yoddan aytib beradi, yashiringan qismini mustaqil topadi;
- mavzu jihatdan guruhlarga ajrata oladi;
- ma'lum bir matn g'oyasiga mos maqollarni topa oladi;
- maqol mavzusiga mos matn (hikoya) tuza oladi;
- matn tarkibidan maqol va hikmatli so'zlarni farqlagan holda ajrata oladi;
- janr sifatida o'xhash asarlardan farqlay oladi;
- birikma sifatida hikmatli so'z va iboralardan farqlaydi.

Tarbiyaviy tomonidan:

- o'quvchilarning so'z boyligi maqollar asosida oshiriladi;
- voqeaga nisbatan to'g'ri xulosa chiqarish malakasi shakllanadi;
- fikrlash doirasi kengayib, tafakkuri o'sadi;
- og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi;



- insoniy fazilatlar asosida tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, “O’zbekiston”, 2017.
2. O’zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari. – Toshkent, 2017.
3. Кошфарий М. Девону луготит турк. III – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1963. – Б. 256.
4. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang’ich sinflarda adabiyot o’qitish metodikasi. Samarqand, SamDU nashriyoti, 2019.
5. Саломов F. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1961, 162-бет.
6. Саломов F. Тил ва таржима (бадиий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Тошкент, “Фан”, 1966, 258-бет.
7. Фаниева Ш. Фразеологизмларнинг турғун бирикмалар системасидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, № 1. 94-бет.
8. Jalilova N. Maqollarni o’rgatish metodikasi. Uslubiy qo’llanma. – SamDU nashriyoti, 2022.
9. Matchonov S., Shojalilov A., G’ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z., O’qish kitobi (4-sinf uchun darslik). – T.: “Yangiyul poligraf service”, 2020.
10. Umarova M., Xamrakulova X., Tojiboyeva T. O’qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: “O’qituvchi”, 2019.
11. G’afforova. T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova. Z. O’qish kitobi (2-sinf uchun darslik). – T.: “Sharq”, 2018.
12. G’afforova. T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O’qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: “Sharq”, 2019.
13. Ikromova R., Gulomova X., Yo’ldosheva.Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik). – T.: “O’qituvchi”, 2020.



14. [Fuzailov S.,] Xudoyberganova M., Yo'ldosheva.Sh. Ona tili (3-sinf uchun darslik). – T.: “O’qituvchi”,, 2019.